

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-mart oylarida Surxondaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 7 639,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023-yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 5,5 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024-yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 110,7 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Surxondaryo viloyatining qo'shgan hissasi 3,1 % ga yetdi.

## 2024-yilning yanvar-mart oylarida Surxondaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



## 2024-yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023-yil	2024-yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>6 544,1</b>	<b>7 639,6</b>	<b>105,5</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	6 344,5	7 465,9	105,5
mahsulotlarga sof soliqlar	199,6	173,7	106,3
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>6 344,5</b>	<b>7 465,9</b>	<b>105,5</b>
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 917,0	2 146,8	103,5
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 191,9	1 374,5	105,2
sanoat	569,2	699,0	104,2
qurilish	622,7	675,5	106,1
xizmatlar	3 235,6	3 944,6	106,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	760,2	941,3	113,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	417,3	513,1	112,7
boshqa xizmat tarmoqlari	2 058,1	2 490,2	103,1



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 2 648,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,9 % ga yuqoridir.

## 2024-yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



## 2024-yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2023- yil	2024-yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,0	97,7
mahsulotlarga sof soliqlar	3,0	2,3
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>30,2</b>	<b>28,8</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>18,8</b>	<b>18,4</b>
sanoat	9,0	9,4
qurilish	9,8	9,0
<b>xizmatlar</b>	<b>51,0</b>	<b>52,8</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	12,0	12,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,6	6,9
boshqa xizmat tarmoqlari	32,4	33,3






2024-yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,7 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,3 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 28,8 % ni, sanoat tarmog‘i 9,4 % ni, qurilish 9,0 % ni va xizmatlar sohasi 52,8 % ni tashkil qildi.


## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,0 f.p. (2023-yilning yanvar-martida – 0,8 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,4 f.p. (2023-yilning yanvar-martida – 0,2 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,6 f.p. (2023-yilning yanvar-martida – 0,8 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,3 f.p. (2023-yilda – 2,0 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,3 f.p.)ga ko'paydi.

## 2024-yilning yanvar-mart oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2024-yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,5 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 28,8 %), sanoatda – 104,2 % (9,4 %), qurilishda – 106,1 % (9,0 %), xizmatlar sohasida – 106,7 % ni (52,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 113,2 % (12,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 112,7 % (6,9 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,1 % dan (33,3 %) iborat bo'ldi.

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2023-y.

2024-y.



4,1 %

YAHM

5,5 %



2,9 %

Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik xo'jaligi

3,5 %



2,7 %

Sanoat

4,2 %



7,5 %

Qurilish

6,1 %




4,0 %

Xizmatlar

6,7 %

2024-yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023-yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 110,7 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 117,9 % va xizmatlar sohasida – 114,2 % qayd etildi.

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)





2024-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 5 191,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2023-yilning yanvar-mart oylarida - 4 336,8 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 69,5 % ni (2023-yilning yanvar-mart oylarida - 68,4 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog‘liq.

## Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd. so‘m

Ulushi, % da

2023-yil

4 336,8

68,4 %

2024-yil

5 191,8

69,5 %

